



SHAXS HARAKTERINI IFODALOVCHI FRAZIOLOGIK BIRLIKLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TAHLILI

Axmedova Matluba Ibragimjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Yigitaliyeva Handona Zokirjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bo'limi Lingvistika ingliz tili mutaxassisligi II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7466851>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 20th December 2022

Online: 21th December 2022

KEY WORDS

Idiomalar, tilshunoslik, semantik tahlil fraziologiya, fraziologik birliklar, emotsional ekspressivlik, fraziologik tarkib.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shaxs xarakterini ifodalovchi fraziologik birliklarning semantik tahlili ko'rib chiqildi. To'plangan materiallar va ularning tahlilidan ingliz tili leksikologiyasi kursi bo'yicha ma'ruza o'qishda amaliy mashg'ulotlarda hamda lu'g'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Turli tillar fraziologiyasini qiyosiy o'rganish har ikkala tilning tuzilishini chuqurroq tushunish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ushbu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, adabiyoti, tarixi va urf-odatlarini haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Masalan: ingliz va o'zbek fraziologiyalarida sof milliy idiomalari bilan ifodalanuvchi shaxs xarakterini ko'rib chiqamiz. O'zbek va ingliz tillarining fraziologik tuzilishi juda xilma-xil, ammo ma'nolari o'xshash.

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida idiomalarning semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Fraziologiya har qanday tilning ajralmas va eng boy qismidir. Idiomalarda biz til rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan madaniyat va ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini topamiz.

Tilimizning fraziologik tarkibi ko'pligi va rang-barangligi, turli ma'no turlari ifodalanishi bilan birga emotsional ekspressivlikka ham boyligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat tilimizning fraziologik tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ba'zilari biror narsa, hodisa yoki kishilarning xarakterini nomlash bilan birga, so'zlovchining bu hodisaga, xarakterga o'z bahosini, munosabatini

bildiradi. Bu munosabatlar ijobiy yoki salbiy tarzda sodir bo'ladi.

Xulq - atvor qoidalari insonga aniq bir holatlarda yoki qandaydir bir harakatlardan o'zini tiyishi (xulq - atvor me'yorlariga rioya qilishda) beriladi.

Xulq - atvor qoidalariga rioya qilishda minimal faollik ko'rsatiladi, chunki odam ma'lum bir harakatlardan o'zini tiyadi. O'rganilgan xulq - atvor qoidalariga rioya qilish o'z o'zidan takrorlanuvchi harakatlarga aylanadi va odatiy xulq atvor harakati hisoblanadi.

Xulq - atvor me'yorlariga rioya qilish yoki ularni buzish insonning shaxsiy -



harakteriologik xususiyatlari bilan bog'liq, jumladan mardlik, jasurlik, qat'iyat, mustaqillik, sabr, matonat va hakovolar.

«Xarakter» so'zi bu odamning tub psixik xususiyatlarining yig'indisidir va u insonning har bir xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Bu narsa inson hayotidagi turlicha vaziyatlarida o'zini qanday tutishi belgilaydi.

Insonning fe'lini bilib, u har xil holatlarda qanday yo'l tutishini va uni nimalar kutishini bilamiz.

Biz ingliz tilida inson xarakterini ifodalovchi iboralarni tadqiq qildik. Ular inson fe'l-atvoridagi turlicha chizgilarni ifodalaydi.

- **A people person** - xalq odami - odamlar bilan juda yaxshi til topishadigan va yaxshi tinglovchi bo'lgan ochiq odam. O'zbek tilida odamohun, xalqchilga to'g'ri keladi.

Tom is enthusiastic and positive and he is a people person (Tom g'ayratli va ijobiy va u odam xos odam)

- **A party animal** – ziyofatlarga tez-tez qatnashishni yoqtiradigan odam.

1. *Are you going out again tonight You are such a party animal* (Sen bugun oqshom yana ko'chaga chiqmoqchimisani? Sen shunchalar ziyofat ishqibozi) sanki)

2. *Jack is out every Friday and Saturday. If there was a party on, he was out on a Sunday as well. He is such a party animal* (Jek har Juma, Shanba ko'chada agar ziyofat bo'lsa, u Yakshanba kuni ham tashqarida bo'lardi. U shunday ziyofatparastki)

- **Happy camper** – Baxtli lager, har doim hursand va qoniqarli odam. Inglizlar ko'pincha «baxtli-lager» ni salbiy ma'noda ishlatadi.

The apartment was much smaller than I expected and I was not a happy camper. He's finally got that promotion. He is a real

happy camper. (Kvartira men kutganimdan ko'ra ancha kichik edi va men omadli emas edim. U nihoyat bu ko'tarilishga erishdi. U haqiqiy omadli edi.)

- **Nerd** – fan yoki texnologiyaga, xususan, kompyuterlarga juda qiziqadigan kishi.

1. *He spends all weekends at his laptop, he is a such a nerd.* U butun dam olish kunlarini noutbukda o'tkazadi, u juda axmoq.

2. *Life and soul of the party* – g'ayratli va ijtimoiy tadbirlar ishqibozi.

3. *If was a great night, Jim was life and soul of the party* – Bu ajoyib kecha edi, Jim ziyofatning quvonchi bo'ldi.

- **Dipstick** - ahmoq ko'rinadigan odam.

1. *I don't know whether to laugh or be angry at his behavior what a complete dipstick.*

Uning xatti-harakatidan kulishni yoki g'azablanishni bilmayman qanday to'liq ahmoqlik.

- **Ouwn - to - earth** – Yerga yaqin amaliy va haqiqatga yaqin, boshqa odamlarni teng qabul qiladigan kishi. O'zbek tilida hammaga bir xilda munosabatda bo'luvchi shaxs.

Despite his wealth, he was a down-to-earth man. He was very generous and had a kind heart. Boyligiga qaramasdan, u juda sahiy va mehribon edi.

- **Early bird** – erta uyg'onib, odatdagi vaqtdan oldin ishga boradigan kishi.

Bu ibora ingliz maqolidan kelib chiqqan. «The Early bird catches the worm» «Erta uyg'onadigan qushqurti ushlaydi»

My mum is the early bird in our family, she gets up at 5 o'clock in the morning. Bizning oilamizda oyim erta uyg'onadigan qush, u erta tong 5 da turadi.

- **Larger than life** – Hayotdan kattaroq, boshqa odamlardan ko'ra ko'proq hayojonli yoki qiziqarli bo'lgan kishi.



All who knew him would agree that his personality was larger than life, he was a joy to be around. Uni taniganlarning barchasi uning shaxsiyati hayotdan kattaroq ekanligiga rozi bo'lishadi, uning atrofida bo'lish quvonchli edi.

- **Wimp** – zaif, o'ziga ishonchi past shaxs.

I always avoid confrontations. I am a such a wimp.

Men har doim ulardan qochaman. Men shunday zaifman.

- **Big mouth** – sirni saqlay olmaydigan inson. O'zbeklarda «og'zida gap turmaydigan odam» iborasiga to'g'ri keladi. *Sarah will tell everybody, she's such a big mouth. Nothing I tell her is going to be a secret.* Sara hammaga aytadi, u shunday kata og'iz. Sir bo'lsin deb unga hech nima aytmayman.

- **Busybody** – Boshqa odamlarning shaxsiy hayotiga kata qiziqish bildiradigan shaxs.

My next – door neighbour is a real busybody. Mening qo'shnim xaqiqiy band odam.

- **Scrooge** – pul sarflashdan nafratlanadigan yomon inson. Biz o'zbeklarda o'ta pishshiq, xasisga to'g'ri keladi

Bu ibora Charlz Dikinsning «Christmas Carol» hikoyasidagi qaxramondan kelib chiqqan.

My last boss was a real scrooge, for year we never received a christmas bonus. Mening so'ngi boshlig'im juda ziqna edi. Bir necha yillar davomida hech qachon kristmas(bayram) bonusi(qo'shimcha ish haqi)ni olmadik.

- **Daydreamer** – hayolparast, hozirga e'tibor qaratishi kerak bo'lganida, orzu hayollari bilan bo'ladigan shaxs.

I've always been a bit of daydreamer in school. Men har doim maktabda biroz hayolparast bo'lganman.

- **Skiver** – ishdan yoki mas'uliyatdan doimiy ravishda qochadigan odam. O'zbek tilida norasmiy tilda «quyonni rasmini chizadigan» iborasiga to'g'ri keladi.

He didn't bother to turn up for work on Monday. He is a skiver.

U dushanba kuni ishda bo'lishga tashvishlanmadi. U qochoq.

- **Clock-watcher**(Dictionary entries near-clock watch, clockwise)– vaqt o'tishini diqqat bilan kuzatib turuvchi shaxs (masalan, ishchi yoki talaba). Birinchi bor 1911 yilda foydalanilgan.

He used to be known for working late, but is now a dedicated clock-watcher. Ilgari u kechgacha ishlashi bilan tanilgan edi, ammo hozir vaqtni kuzatuvchi mashhur shaxs.

- **Laid-back** – uslub va xarakterda bo'shashgan; odatda boshqa odamlarning xatti-harakatlari yoki qilinishi kerak bo'lgan narsalar haqida tashvishlanmaslik: *I've never seen her worried or anxious in any way - she's so laid-back.*

Men uni hech qachon havotirlanayotganini yoki tashvishlanayotganini ko'rmaganman - u juda xotirjam.

- **Bossyboots**(Dictionary entries near – bossy, bostanji) – boshqalarga hukmronlik qilishni yoqtiradigan va ularga nima qilishni tez-tez aytadigan shaxs.

She is a bit of bossy-boots and always wants to get things perfect.

U bir oz o'zini ustun qo'yadi va har doim narsalarni mukammal qilishni xohlaydi.

- **Lamebrain** – ahmoq, esi past, aqlidan ozgan.

The Futurists, led by Filippo Marinetti, spent a lot of time publishing lamebrain



manifestos about the need to sweep away existing society, if necessary by war.

Barton Swaim, WSJ, 4 Feb. 2022

Filippo Marinetti boshchiligidagi futuristlar mavjud jamiyatni kerak bo'lsa urush orqali yo'qotib yuborishga ehtiyoj borligi haqida ahmoqona manifestlar bosib chiqarishga juda ko'p vaqt sarflashgan.

- **Moaning Minnie** – kichik, ahamiyatsiz narsalardan shikoyat qilib yuradigan kishi, har doim shikoyat qilib, boshqalarni bezovta qiladigan kishi.

Of course she's not happy with your work she's always been a real Moaning Minnie.

Albatta, u sizning ishingizdan mamnun emas - u har doim chinakam shikoyatchi bo'lib kelgan.

- **Wet blannet** - boshqa odamlarning zavqlanishiga xalaqit beradigan biror narsa aytadigan yoki qiladigan kishi.

Katie is so negative about everything she is such wet blanket. Ketiy shunchalik negativ. Ketiy hamma narsaga juda salbiy munosabatda bo'lib, u shunday pessimist.

- **Chatterbox** – ko'p gapiradigan shaxs.

My son always gets detentions in school for talking in class, he is such a chatterbox. Mening o'g'lim maktabda doim gaplashganda ushlanadi. U shunday sergap. O'zbek tilida sergap, maxmadonaga to'g'ri keladi.

References:

1. Azimjon Latifjon o'g'li Melikuziev. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/UAH57>
2. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.
3. o'g'li Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.